Birinchi darajali budjet mablagʻlarini taqsimlovchilarning xarajatlari ustidan parlament nazoratini kuchaytirish maqsadida Qonunchilik palatasi qoʻmitalari majlislarida tegishli vazirlik va idoralar rahbarlarining Davlat budjetidan amalga oshirilayotgan rivojlantirish dasturlari hamda ushbu dasturlar maqsadli indikatorlarining bajarilishi yuzasidan oʻz faoliyat yoʻnalishlaridan kelib chiqib, hisobotlarini eshitib borish amaliyoti yoʻlga qoʻyildi *(2025-yil 30-yanvardagi PF–16-son farmon)*;

9) Oliy Majlis palatalari qoʻmita eshituvi institutining huquqiy asoslari mustahkamlandi *(2025-yil 30-yanvardagi PF–16-son farmon)*.

*Ikkinchidan*, Qonunchilik palatasi va Senatning hamda parlamentdagi muxolifatning huquq va vakolatlari kengaytirildi.

Xususan, konstitutsiyaviy islohotlar natijasida Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari 5 tadan 12 taga, Senatning vakolatlari esa 14 tadan 18 taga yetkazildi.

Palatalarning qonun ijodkorligi faoliyatidagi ishtiroki mexanizmlari ham qayta koʻrib chiqilib, Qonunchilik palatasi tomonidan kiritilgan qonunlar Senatda 60 kun ichida koʻrib chiqilishi belgilandi. Basharti Senat ushbu muddatda qonunni maʼqullash yoki rad etish toʻgʻrisida qaror qabul qilmasa, Qonunchilik palatasi qonunni imzolash va eʼlon qilish uchun Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentiga yuborishi belgilandi.

Senatga esa qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida Qonunchilik palatasiga kiritish vakolati berildi. Shuningdek, Qonunchilik palatasi tarqatib yuborilgan davrda Senat Oliy Majlisning qonunlarni qabul qilishga doir vakolatlarini bajarishi (Konstitutsiya va konstitutsiyaviy qonunlar mustasno) belgilandi.

Shu bilan birga, Senatning sud va nazorat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va maxsus xizmatlar faoliyati ustidan nazorat funksiyalari, shu jumladan, Senatning mansabdor shaxslarni lavozimiga saylash jarayonidagi vakolatlari kengaytirildi. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Oʻzbekiston Respublikasi Hisob palatasi rahbarligiga nomzodlar avval Senatda koʻrib chiqilib, keyin Prezident tomonidan tayinlanishi amaliyoti joriy etildi. Eski tartib boʻyicha Bosh prokuror, Hisob palatasining raisini lavozimiga tayinlash va ozod etish masalasi Prezident farmoniga asosan amalga oshirilgan boʻlsa, endi ular Prezident taqdimnomasiga asosan Senat tomonidan saylanadi.

Maxsus xizmatlar faoliyati ustidan parlament nazoratini kuchaytirish maqsadida Davlat xavfsizlik xizmati rahbarligiga nomzod Senat bilan maslahatlashuvlardan soʻng Prezident tomonidan lavozimga tayinlanishi belgilandi. Eski tartib boʻyicha Senat Davlat xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish toʻgʻrisidagi farmonlarini tasdiqlash bilan cheklanardi, yaʼni nomzodni tanlash masalasiga real taʼsir koʻrsatish imkoniyatiga ega emas edi. Aksincha, postfaktum ishlardi, endi esa barvaqt taʼsir koʻrsatish imkoniyatiga ega boʻladi.

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini taʼminlash maqsadida Sudyalar oliy kengashining barcha aʼzolarini Senat tomonidan saylash tizimi kiritildi (ilgari faqatgina Sudyalar oliy kengashining raisi Senat tomonidan saylanardi).

Bundan tashqari Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rahbarini lavozimiga tayinlash toʻgʻrisidagi Prezident farmonini tasdiqlash masalasi ham Senatning vakolatiga oʻtkazildi.

Yangilangan Konstitutsiya asosida Qonunchilik palatasi va Senatga oʻzini oʻzi tarqatib yuborish vakolati berildi, ushbu tartibni amalga oshirish uchun tegishlicha deputatlar yoki senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat koʻpchilik ovozi bilan qaror qabul qilishi lozim boʻladi.

Shuningdek, parlamentda muxolifatning kafolatlangan huquqlari yanada kengaytirilib, ularning soni uchtadan oltitaga oshirildi. Xususan, parlamentdagi muxolifat vakillariga 1 nafar qoʻmita raisi va 2 nafar qoʻmita raisi oʻrinbosari lavozimlariga nomzodlar koʻrsatish, qonun loyihasi ikkinchi oʻqishda koʻrib chiqilguniga qadar oʻsha masalaga doir qonun loyihasining, shuningdek, Qonunchilik palatasi qarori loyihasining muqobil tahririni kiritish hamda har chorakda "Hukumat soati" va parlament soʻrovi doirasida muxolifat tomonidan kamida bittadan masala kiritish kabi qoʻshimcha vakolatlar berildi *(2025-yil 30-iyuldagi OʻRQ–1077-son qonun)*;

*Uchinchidan*, ikki palata ishidagi takrorlanishlarni bartaraf etish maqsadida har bir palataning masʼuliyat sohasi aniqlashtirildi.

Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan hukumatni shakllantirish va uning faoliyatini nazorat qilish, Davlat budjeti ijrosiga oid masalalar Qonunchilik palatasining vakolatiga, hududlar manfaati va ularni rivojlantirish, yangi vazirliklar tashkil qilish toʻgʻrisidagi farmonlarni tasdiqlash masalalari esa Senat vakolatlari doirasiga taalluqli ekanligi mustahkamlandi.

Shuningdek, Senat oldiga qoʻyilayotgan yangi vazifalardan kelib chiqib, uni ixcham, xalqchil va hududlar manfaatini ifoda etadigan idoraga aylantirish boʻyicha normalar kiritildi. Xususan, senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga tushirildi, bunda har bir hududdan teng ravishda 4 tadan senator saylanishi, Prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni esa 16 tadan 9 taga kamaytirildi (Norboboev, 2023).

Qonunchilik palatasi Spikeri va Senat Raisi lavozimga 2 muddatdan ortiq saylanishi boʻyicha cheklov kiritildi.

*Toʻrtinchidan*, Oliy Majlis palatalarining davlatning tashqi siyosatini amalga oshirishda roli va mavqeyini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, Oliy Majlis palatalarining davlatning tashqi siyosati amalga oshirilishi, xalqaro huquq normalarining milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishi ustidan nazorat vakolatlari mustahkamlandi, xorijiy davlatlar parlamentlari bilan parlamentlararo hamkorlik guruhlari, komissiyalari, qoʻmitalari, ishchi guruhlar va boshqa tuzilmalarni tashkil etishning huquqiy mexanizmi takomillashtirildi, Oʻzbekistonning milliy manfaatlarini roʻyobga chiqarish uchun parlament diplomatiyasidan foydalanish imkoniyatlari kengaytiriladi *(2018-yil 18-apreldagi OʻRQ–476-son qonuni)* hamda parlament diplomatiyasi konsepsiyasi tasdiqlandi *(Qonunchilik palatasi va Senat kengashlarining 2020-yil 25-sentabrdagi qoʻshma qarori)*.

Senat tomonidan O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari rahbarlarining o‘z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitish tartibi joriy etildi *(2021-yil 14-yanvardagi O‘RQ–666-son qonun)*. Unga ko‘ra, Senat zarur bo‘lgan taqdirda o‘z majlisida O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari rahbarlarining o‘z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan hisobotlarini mas’ul qo‘mitada dastlabki tarzda ko‘rib chiqqan holda, ham bevosita, ham videokonferensaloqa rejimida eshitadi. Bu haqda Senat Tashqi ishlar vazirligi tomonidan eshituvni tashkil etish bo‘yicha choralar ko‘rilishi uchun ushbu vazirlikni oldindan xabardor qiladi. Eshituv yakunlari bo‘yicha qabul qilingan Senat qarori o‘z hisoboti eshitilgan shaxsga hamda Tashqi ishlar vazirligiga yuboriladi.

*Beshinchidan*, Oliy Majlis palatalarining okruglarda, joylarda ishlarning holatini o‘rganish, xalq bilan muloqot qilishga doir faoliyati takomillashtirildi.

Ushbu yo‘nalishda parlamentni xalq bilan yaqinlashtirishga qaratilgan bir qator yangi amaliyotlar joriy etildi. Xususan, 2020-yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi *(2020-yil 29-iyundagi qaror)* va Senati *(2020-yil 23-iyundagi qaror)* huzurida Yoshlar parlamentlari tashkil etildi, bu yoshlarning qonun ijodkorligi va parlament faoliyatidagi ishtirokini yanada kengaytirish imkonini berdi. Bunda Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti partiyaviy asoslar bo‘yicha shakllansa, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti mahalliy kengashlarning saylangan yosh deputatlari orasidan shakllantiriladi.

Aholini tashvishga solayotgan muammolarni tezkorlik bilan hal qilish maqsadida o‘rganilgan masalalar bo‘yicha bevosita joylarga borib, vazirlik va idoralar rahbarlari ishtirokida kengash va qo‘mitalarning sayyor majlislarini o‘tkazish tizimi joriy etildi.

“Deputat yordamchisi” instituti joriy etilib, Qonunchilik palatasi deputatlarining joylardagi jamoatchilik vakillari sifatida tegishli siyosiy partiya hududiy bo‘limlarining vakillari biriktirib qo‘yildi. “Mening fikrim” maxsus veb-portali orqali Oliy Majlis palatalariga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga elektron jamoaviy murojaat qilish tartibi joriy etildi. 2021-yil dekabr oyidan boshlab Qonunchilik palatasi va Senat majlislarini jonli efir orqali namoyish qilish amaliyoti joriy etildi *(2021-yil 16-iyundagi PF–6247-son farmon)*, shuningdek, Oliy Majlis palatalari rasmiy veb-saytlari yangilanib, deputat va senatorlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilish imkoniyati yaratildi.

Qonunchilik palatasi deputatlariga o‘zlari saylangan hudud bo‘yicha kelgusi yil uchun mo‘ljallangan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlariga kiritiladigan investitsiya loyihalarining shakllantirilishi yuzasidan xalq deputatlari mahalliy kengashlari majlislaridagi muhokamalarda o‘z taklif va tavsiyalari bilan ishtirok etish imkoniyati berildi *(Qonunchilik palatasining 2022-yil 3-fevraldagi qarori)*.

Qonun ijodkorligi faoliyatida yangi “elektorat bilan maslahatlashuvlar” instituti joriy etilib, siyosiy partiya fraksiyasi tomonidan qonun loyihalarini joylarda jamoatchilik ishtirokida keng muhokamalardan o‘tkazib, ularning taklif va tavsiyalari asosida maromiga yetkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

*Oltinchidan*, Oliy Majlis Senatining mahalliy kengashlar faoliyatini samarali muvofiqlashtirish bo‘yicha vakolatlari kengaytirildi.

Xususan, Senatga kelib tushgan qonunning joylarda mahalliy kengashlar bilan muhokamasini tashkil etishga oid mexanizmlar belgilandi *(Senat Kengashining 2020-yil 29-apreldagi KQ-35–IV-sonli qarori)*. Oliy Majlis Senati tomonidan mahalliy kengash deputatlarini, kotibiyat xodimlarini muntazam ravishda o‘qitish va malakasini oshirish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qa-

rorlari va farmoyishlariga zid keladigan qarorlari belgilangan tartibda Oliy Majlis Senati tomonidan bekor qilinishi, bunda bekor qilingan Kengash qarori oʻzining amal qilishini tugatishi belgilandi *(2021-yil 14-yanvardagi OʻRQ–666-son qonun)*.

Senatda doimiy asosda ishlovchi senatorlar hududlardagi mahalliy kengashlarga mas'ul etib biriktirildi, ular joylarga chiqib mahalliy kengashlar faoliyatiga amaliy-uslubiy yordam koʻrsatish tartibi yoʻlga qoʻyildi. Bunda hududlarga biriktirilgan senatorlar har oyda joylarga chiqib, mahalliy kengashlar sessiyalarida ishtirok etadi hamda respublika darajasida hal etilishi zarur boʻlgan masalalarni Senat qoʻmitasi darajasida hal etish choralarini koʻradi. Xalq deputatlari mahalliy kengashlarining har birida "senatorlar xonalari" tashkil etildi.

Oliy Majlis Senatining mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga koʻmaklashish sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirish, mahalliy kengashlar faoliyatini tashkil etishga tizimli, maqsadli va kompleks yondashuvni yoʻlga qoʻyish hamda ularga koʻmaklashish maqsadida Senat devonida Hududiy vakillik organlarini oʻrganish markazi tashkil etildi *(Senat Kengashining 2023-yil 16-oktabrdagi qarori)*.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham Senat hududiy vakillik palatasi sifatida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatiga oid konstitutsiyaviy vakolatlarga ega boʻldi. Xususan, Senat mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga oʻz faoliyatini amalga oshirishda koʻmaklashish hamda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining qarorlarini, ular qonunchilik normalariga muvofiq boʻlmagan taqdirda, bekor qilish vakolatlari konstitutsiyaviy darajaga ega boʻldi.

*Yettinchidan*, Oliy Majlis va siyosiy partiya fraksiyalari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslari kuchaytirildi.

Hukumatning parlament bilan hamkorligining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, qonun ijodkorligi jarayonida va ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishda Hukumat ishtirokining samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlisdagi vakolatli vakili lavozimi ta'sis etildi *(Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-sentabrdagi PQ–3294-son qarori)*.

Davlat organlari tuzilmasida qonun ijodkorligi faoliyati va qonunlar ijrosini ta'minlash sohasida Oliy Majlis palatalari bilan oʻzaro hamkorlik uchun mas'ul boʻlgan rahbar oʻrinbosarini belgilash amaliyoti yoʻlga qoʻyildi.

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini yaratish maqsadida Oliy Majlis palatalarida korrupsiyaga qarshi kurashish qoʻmitalari tashkil qilindi.

Oliy Majlis palatalarining axborot-tahliliy faoliyatini kuchaytirish maqsadida Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti, keyinchalik uning bazasida Qonunchilik palatasida Parlament tadqiqotlari instituti faoliyati yoʻlga qoʻyildi, shuningdek, Davlat budjeti boshqarmasi tashkil etildi, yuridik xizmat negizida Yuridik boshqarma tashkil etildi, Oliy Majlis palatalari qoʻmitalari huzurida ular faoliyatiga bevosita yordam beradigan kotibiyatlar tashkil etildi.

Parlament delegatsiyalarining xorijiy mamlakatlarga tashriflarini va chet el delegatsiyalarini qabul qilishni tashkil etish hamda shu maqsadlar uchun Davlat budjetidan ajratiladigan mablagʻlarni sarflash masalasini Oliy Majlis palatalarining qarori bilan belgilash tartibi joriy qilindi.

Siyosiy partiya fraksiyalari rahbarlarining Qonunchilik palatasi Spikeri oʻrinbosari maqomi bekor qilindi. Bu fraksiya rahbarlariga oʻz faoliyatini, e'tiborini tashkiliy-boshqaruv masalalarga emas, balki ustuvor ravishda partiya ishiga, saylovoldi dasturi ijrosiga qaratish imkonini beradi.

*Sakkizinchidan*, Oliy Majlisning inson huquqlari sohasidagi vakolatlari va institutsional asoslari kengaytirildi.

Xususan, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ga fuqarolarning murojaatlari asosida davlat boji to'lamasdan sudlarga da'vo arizalari va tegishli tashkilotlarga taqdimnomalar kiritish vakolatlari berilgan, shuningdek, ushlab turilgan va qamoqqa (ma'muriy qamoqqa) olingan va ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning Vakilga murojaat etishi belgilandi *(2017-yil 29-avgustdagi O'RQ–441-son qonun).*

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) huzurida qiynoqqa solish hollarining oldini olishga doir chora-tadbirlar tizimi (milliy preventiv mexanizm) joriy etilib, Vakilning qamoqda saqlash joylariga muntazam borib turishi orqali qiynoqqa solish hollarining oldini olishga doir choralar ko'rishi hamda Vakilning mazkur yo'nalishdagi faoliyatiga ko'maklashish uchun ekspertlar guruhi tashkil etilishi belgilandi *(2019-yil 14-martdagi O'RQ–530-son qonun)*.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik kiritildi *(2021-yil 21-apreldagi O'RQ–683-son qonun)*.

Ombudsman huzuridagi Milliy preventiv mexanizm takomillashtirilib, ekspert guruhi negizida Ombudsman huzuridagi Qiynoq holatlarini aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha jamoatchilik guruhlari tashkil qilindi. Ular zimmasiga qiynoqqa solish holatlarini aniqlash hamda ularni tezkor bartaraf etish bo'yicha talabnomalarni tegishli davlat organiga taqdim qilish, qiynoqqa solish holatlari to'g'risidagi murojaatlarni ko'rib chiqishda ishtirok etish kabi vazifalar yuklatildi *(2021-yil 26-iyundagi PQ–5163-son qaror)*.

2022-yil 1-yanvardan Ombudsmanning joylarda doimiy asosda faoliyat yurituvchi 14 nafar mintaqaviy vakillari lavozimlari joriy qilindi. Ombudsmanning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis palatalari va Vazirlar Mahkamasiga inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning ayrim yo'nalishlari bo'yicha huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa chora-tadbirlar ko'rishga qaratilgan maxsus ma'ruzalar taqdim qilish vakolatlari berildi *(2021-yil 10-sentabrdagi PF–6312-son farmon)*.

2024-yil 15-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda (O'RQ–1002-son) qabul qilindi. Mazkur qonunda hozirgi davr talablaridan kelib chiqib yangi normalar hamda o'zgartishlar kiritilgan, Ombudsmanga yangi vazifalar yuklatilgan va ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun qo'shimcha vakolatlar berilgan. Ombudsmanga qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli ekanligi belgilandi.

2020-yilda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) o'rinbosari – Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi *(2020-yil 29-maydagi PQ–4736-son qaror)*, 2021-yilda esa uning negizida Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) instituti joriy etildi *(2021-yil 9-avgustdagi PF–6275-son farmon)*.

*To'qqizinchidan*, parlament faoliyati raqamlashtirildi. Xususan, aholining deputatlar va senatorlar bilan o'zaro munosabatlarini, Oliy Majlisning xalq bilan muloqotini takomillashtirish maqsadida "Elektron parlament" tizimi joriy etildi.

Ushbu tizim parlament faoliyati samaradorligi va shaffofligini oshirish, uning faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali xalq bilan muloqotni takomillashtirish, deputatlarga saylangan saylov okruglaridan mahalliy hokimiyat idoralarining qarorlarini majburiy yuborish orqali hududdagi ahvoldan xabardorligini oshirish imkoniyatini yaratdi *(Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati kengashlarining 2017-yil 25-apreldagi qo'shma qarori)*.

Parlament palatalari a'zolari saylovchilar bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot olib borishi, saylovchilarni qiynayotgan muammolarni muhokama qilish va hal etishi jarayonini raqamlashtirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi deputatlari portali" yaratildi.

*O'ninchidan*, Oliy Majlis palatalarining mamlakatning ichki siyosatining turli yo'nalishlari bo'yicha muhim vazifalarni hal etishdagi vakolatlari kengaytirildi.

Xususan, Senat Raisi boshchiligida 4 ta respublika komissiyasi – Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi *(2020-yil 2-iyundagi PF–6003-son farmon)*, Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha milliy komissiya *(2023-yil 21-dekabrdagi PF–210-son farmon)*, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi *(2020-yil 29-iyundagi PF–6013-son Farmon)*, Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya *(2022-yil 4-martdagi Senat Kengashi qarori)* faoliyat ko'rsatadi.

Qonunchilik palatasida esa Qonunchilikni Jahon Savdo Tashkiloti bitimlariga uyg'unlashtirish bo'yicha komissiya, Iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish va yashil iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish masalalari bo'yicha komissiya, Fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasida belgilangan asosiy vazifalarning bajarilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha parlament komissiyasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Shuningdek, ikkala palata huzurida Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha hamda O'zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish sohasidagi Milliy maqsadlar va vazifalarning 2030-yilgacha bo'lgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish bo'yicha parlament komissiyalari ham faoliyat ko'rsatadi. Bu ham ushbu yo'nalishlarni rivojlantirish va isloh etishda parlament roli va ishtiroki kengayib borayotganidan dalolat beradi.

*Yangi O'zbekiston parlamentining kelajak istiqbollari yoki parlamentarizmni mustahkamlash bo'yicha ayrim takliflar*

O'tgan davrda amalga oshirilgan islohotlardan kelib chiqib, kelgusida parlamentning davlat va jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlashga qaratilgan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Parlamentning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatishi ham, nufuzi va obro'si ham, avvalo, u qabul qiladigan qonunlarga bog'liq. Ya'ni parlamentning asosiy quroli – qonun. Shunga ko'ra, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda qonunlarning ulushini oshirmay turib parlamentning rolini oshirib bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, qonunlarning roli va parlament roli uzviy bog'liqlikda rivojlanadi, biri ikkinchisisiz rivojlana olmaydi.

Shu bois, *birinchidan,* huquqiy tartibga solishda qonunlarning ulushini oshirib borishimiz lozim. Hozirgi kunda (2025-yil avgust) normativ-huquqiy hujjatlar fondi 26 mingdan ortiq yaxlit hujjatni tashkil qilsa, ularning ichidan 1 487 tasi qonun, ya'ni huquqiy tartibga solishda qonunlar ulushi 6 foizga ham yetmayapti. Masalan, taqqoslash uchun idoraviy hujjatlar bilan tartibga solish ulushi 33 foizni, qonunosti hujjat bilan tartibga solish ulushi esa 43 foizni tashkil etmoqda.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasining 80-maqsadi sifatida "To'g'ridan to'g'ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilish amaliyotini kengaytirish, ularning ulushini kamida 60 foizga yetkazish" va "Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning aniq chegaralarini belgilash orqali ularning sonini keskin qisqartirish" kabilar belgilangan.

Shu bois ushbu strategik maqsadga erishish uchun yillar kesimida aniq maqsadli ko'rsatkichlarni belgilab olish maqsadida har yili soha va tarmoqlardagi qonun va qonunosti hujjatlarni tizimlashtirish orqali to'g'ridan to'g'ri ishlaydigan qonunlarni ishlab chiqish bo'yicha reja tasdiqlashni taklif etamiz.

*Ikkinchidan,* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yilning 19-fevraldagi "Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–75-son qarorida qonun kuchga kirgan kundan boshlab besh yil o'tib, mas'ul davlat organi va Oliy Majlis palatalarining qo'mitalari tomonidan qonunning samaradorligini, maqsadi va kutilgan natijalariga erishilganini aniqlash uchun uning tartibga solish ta'sirini baholash amaliyoti joriy etilgan edi.

Lekin o'tgan davrda ushbu amaliyot ishlamadi, shu bois mazkur tartibni amalga oshirish mexanizmlarini nazarda tutgan holda qonuniy asoslarini yaratishni taklif etamiz. Shu maqsadda qonunlar amalda qay darajada qo'llanayotgani, qo'yilgan maqsadga erishilgani, o'zgartirishga zarurat mavjudligi nuqtayi nazaridan o'rganish funksiyasini parlament nazorati shakllaridan biri sifatida belgilash taklif etiladi.

Bunda qonun kuchga kirgach 5 yil o'tib, uning ta'sirini baholash haqida parlament palatalari yoki qo'mitalari tomonidan qaror qabul qilinadi, qo'mitada qonun ta'sir qilgan manfaatdor shaxslar (guruhlar, qatlamlar) ishtirokida ochiq muhokama va eshituvlar o'tkaziladi hamda mas'ul vazirlikning hisoboti ko'rib chiqiladi, qo'mita tomonidan tahlillardan kelib chiqib, xulosa tayyorlanadi, zaruratga ko'ra, qonun hujjatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida loyiha ishlab chiqiladi.

Masalan, Buyuk Britaniyada 2008-yildan buyon parlamentning tegishli qo'mitalari qonunlar ijrosini nazorat tartibida o'rganadi (post-legislative scrutiny). Mas'ul vazirlik qonun kuchga kirganidan 3-5 yil o'tib, parlamentga qonunning qo'llanishi bo'yicha hisobot taqdim etadi.

*Uchinchidan,* parlament vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qonunosti hujjatlar qabul qilish amaliyotiga barham berish zarur. Masalan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada qonun bilan belgilanishi lozim bo'lgan 30 dan ziyod masalalar belgilangan bo'lib, ularning ayrimlari aniq masalalarga tegishli bo'lsa, boshqalari keng doiradagi munosabatlarni qamrab oladi.

Masalan, davlat ramzlari, referendum o'tkazish tartibi, fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi, jazoga tortish, mol-mulkdan yoki biron-bir huquqdan mahrum etish asoslari, insonning huquq va erkinliklarini cheklash, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi, davlat xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlar, bank operatsiyalari, omonatlar va hisobvaraqlarning sir tutilishi, meros huquqi, aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash tartibi, intellektual mulk, soliqlar va yig'imlar, monopol faoliyat, deputatlikka nomzodlarga talablar, davlat hokimiyati organlarining tizimi va vakolatlari, bojxona, valyuta va kredit ishlari, ma'muriy-hududiy tuzilish, qonun loyihalarini, qonunchilik takliflarini kiritish va ko'rib chiqish tartibi, Prezidentni saylash tartibi, Prezident shaxsi daxlsizligi, favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi, Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi, mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi, Kengashlar va hokimlarning faoliyatini tashkil etish tartibi, saylov o'tkazish tartibi, sud tizimi va sudlar faoliyatining tartibi, Konstitutsiyaviy sudni, Sudyalar oliy kengashini, advokaturani, prokuraturani tashkil etish va ularning faoliyati tartibi, Markaziy bankning faoliyati tartibi, Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish, fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining budjet jarayonida ishtirok etishi tartibi va shakllari qonunlar bilan belgilanishi lozim.

Lekin tahlillar Konstitutsiyaga muvofiq, qonun bilan tartibga solinishi lozim bo'lgan ayrim masalalar hali ham qonunosti va idoraviy hujjatlar bilan tartibga solinayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, yig'imlarni joriy etish va inson huquqlarini cheklovchi qoidalar qonunosti va idoraviy hujjatlarda ko'plab uch-

raydi. Masalan, qonunosti hujjatlarida belgilangan barcha yigʻimlarni, imtiyoz, subsidiya, preferensiyalarni yagona qonun hujjatiga birlashtirish zarurati mavjud.

Shu bois Prezident Administratsiyasi yoki parlament huzurida maxsus komissiya tashkil etib, qonunosti va idoraviy hujjatlarni toʻliq xatlovdan oʻtkazib, ulardagi inson huquqlarini cheklovchi normalarni qonun darajasiga koʻtarish yoki bekor qilish boʻyicha dastur ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

*Toʻrtinchidan,* qonunda hukumat tomonidan ishlab chiqilishi belgilangan qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar boʻyicha "parlament bilan maslahatlashuvlar" institutini joriy etish taklif etiladi. Bunda qonunda hukumat tomonidan qabul qilinishi nazarda tutilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqilganidan soʻng ular parlamentning tegishli qoʻmitasi bilan kelishiladi, zarur hollarda loyiha kengashda yoki palatada koʻrib chiqiladi va ularning roziligi olinganidan soʻng qabul qilinishi mumkin boʻladi.

*Beshinchidan,* maʼlumki, hukumat hujjatlari Prezident tomonidan bekor qilinishi mumkin. Lekin Qonunchilik palatasi hukumatni shakllantirishda ishtirok etsa-da, uning qaror va farmoyishlarini bekor qilish yuzasidan tashabbus qilish huquqi mavjud emas. Shunga koʻra, Qonunchilik palatasiga hukumat hujjatlarini bekor qilish boʻyicha Prezidentga, shu jumladan, siyosiy partiyalar tashabbusi asosida taklif kiritish huquqini berish.

*Oltinchidan,* qonunlardagi havolaki normalarni amalga oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki "havolaki normalarda" nazarda tutilgan qonunosti hujjatlarining oʻz vaqtida qabul qilinmasligi qonunlarning amalda "ishlamay qolishi"ga sabab boʻladi.

Masalan, 2020-yil 28-avgustda qabul qilingan "Oʻzbekiston Respublikasining maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida"gi Qonunda Vazirlar Mahkamasi tomonidan maʼmuriy-hududiy birliklarning davlat reyestrini yuritish tartibi belgilanishi hamda maʼmuriy-hududiy tuzilish masalalari boʻyicha komissiyalarning ishlash va ularning faoliyatini tugatish tartibi tasdiqlanishi nazarda tutilgan. Ushbu masalalar yuzasidan hukumat qarori esa oradan deyarli besh yil oʻtib, 2024-yil 10-dekabrda qabul qilingan.

Shu bois qabul qilinayotgan qonunlardagi havolaki normalarning bajarilishi hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi ustidan doimiy va taʼsirchan parlament nazoratini oʻrnatish zarur.

Shu maqsadda har yili Adliya vazirligi tomonidan yangi qabul qilingan qonunlar ijrosini taʼminlash uchun qonunosti hujjatlarining oʻz vaqtida qabul qilinishi va bu borada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Qonunchilik palatasiga axborot kiritib borish amaliyotini yoʻlga qoʻyishni taklif etamiz.

2. Xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish ham Qonunchilik palatasining muhim vakolatlaridan biri hisoblanadi. Keyingi paytlarda koʻplab xalqaro shartnomalar qabul qilinmoqda, xususan, 2020–2024-yillarda xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish va xalqaro hujjatlarga qoʻshilishga qaratilgan 47 ta qonun qabul qilindi. Hozirgi kunda shartnoma ratifikatsiya qilinganidan keyin parlament imzolangan xalqaro shartnomaning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirmayapti, xalqaro shartnoma bajarilishi toʻgʻrisida masʼul shaxslarning hisobotlari eshitilmayapti.

AQSh va Germaniyada parlament xalqaro shartnomalarning bajarilishi toʻgʻrisida hisobot olishga haqli. Buyuk Britaniyada shartnomalar bajarilishi yakunlari boʻyicha parlament tekshiruvi tashabbusi bilan chiqishi mumkin. Daniyada xalqaro shartnoma boʻyicha majburiyatlarni bajarish rejasi tuziladi, parlamentning moliya qoʻmitasi tomonidan moliya nazorati bilan birga hukumat tomonidan amalga oshirilgan ishlar ham nazorat qilinadi.

Xalqaro shartnoma ratifikatsiya qilinganidan keyin imzolangan xalqaro shartnomaning bajarilishi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

*birinchidan,* ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalarning bajarilishi ustidan nazorat tartib-taomilini joriy etish, ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalarning bajarilishi holati yuzasidan Tashqi ishlar vazirligining axborotini eshitish amaliyotini yo'lga qo'yish;

*ikkinchidan,* xalqaro shartnomani ratifikatsiya qilishda uning mohiyatini aholiga va mas'ullarga yetkazish va ijrosini nazorat qilish bo'yicha alohida dastur tasdiqlaydigan yangi tizimni yo'lga qo'yish;

*uchinchidan,* xalqaro shartnoma qoidalarini bajarishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha parlament va hukumatning birgalikdagi ish rejasini ishlab chiqish.

3. "Parlament nazorati to'g'risida"gi Qonunda Qonunchilik palatasi va Senatning qo'mita eshituvlari palata ish rejalari, kengash qarorlariga ko'ra o'tkazilishi belgilangan.

Qo'mita eshituvlarining huquqiy imkoniyatini yanada kengaytirish maqsadida nafaqat yuqorida keltirilgan asoslar, balki jamoatchilik e'tiborini tortgan, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamaga sabab bo'lgan masalalar yuzasidan qo'mita tashabbusi tartibida o'tkazilishini qonunda belgilash taklif etiladi.

4. Davlat tashqi qarzi mablag'larini jalb qilishda parlament ishtirokini oshirish moliyaviy shaffoflik, qonun ustuvorligi va fuqarolar manfaatlarini himoya qilishda muhim mexanizm hisoblanadi.

Xususan, 2023-yilda tashqi qarz miqdorini belgilash parlament ixtiyoriga o'tkazilgan edi. Parlament xalqning vakili sifatida bu jarayonda kengroq ishtirok etishi zarur. Masalan, Germaniyada parlamentning moliya qo'mitasi tashqi moliyaviy bitimlar va Yevropa Ittifoqi krediti bilan bog'liq har qanday majburiyatni tasdiqlashi kerak. Filippinda esa tashqi qarz shartnomalari imzolanishdan oldin parlamentning yuqori palatasi – Senat tasdig'idan o'tadi.

Davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilishda parlament ishtirokini oshirish maqsadida "Davlat qarzi to'g'risidagi" Qonunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining davlat qarzini boshqarish sohasidagi vakolatlariga qo'shimcha kiritib, davlat kafolati ostidagi tashqi qarz mablag'larini jalb qilishda Oliy Majlis palatalarida ma'qullash amaliyotini joriy qilish taklif etiladi.

**Xulosa**

Umuman olganda, siyosiy tizimni modernizatsiya qilish uzluksiz va davomli jarayon bo'lib, parlamentning davlat va jamiyat hayotidagi o'rni va rolini kuchaytirishga, parlamentarizm asoslarini yanada mustahkamlashga qaratilgan islohotlar uning uzviy va muhim qismini tashkil etadi hamda davlat boshqaruvini demokratlashtirish, xalq hokimiyatchiligi konstitutsiyaviy prinsipini amalga oshirish, ijro etuvchi hokimiyatning o'zboshimchaligini tiyib turish mexanizmlarini joriy etish, muvozanatlashgan davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini yaratish kabi maqsadlarga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Elinskiy, A. (2012). Konstitutsionnoe izmerenie ugolovnogo prava [The constitutional dimension of criminal law]. *Comparative Constitutional Review*, *3*(88), 159–160.

2. Guzeeva, O. S. (2021). Konstitutsionnye nachala sorazmernosti i proportsional'nosti uglovogo nakazaniya [Constitutional principles of proportionality and proportionality of criminal punishment]. *Bulletin of the Saint Petersburg University of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, *3*(91), 74–75.

3. Kondrashova, O. A. (2020). Ekoloygicheskoe prestuplenie i pravonarushenie [Environmental crime and offense]. *Young Don Researcher*, *2*(23), 159.

4. Ismoilov, N. M. (2021). Milliy parlamentarizmning tarqalishi [Steps towards the development of national parliamentarism]. *Strategy of Uzbekistan*, 3, 6–15.

5. Mamajonova, D. (2022). Konstitutsiyaviy qonunlar – xalq manfaatining asosiy mezoni [Constitutional reforms are the main criterion of public interest]. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, *2*(10), 690.

6. Norboboev, B. J. (2023). Konstitutsiyaviy islohotlarning mohiyati [The essence of constitutional reforms]. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, *3*(4), 862–863.

7. Ochilov, X. R. (2022). *Jinoyat huquqi [Criminal law]* (p. 176). Tashkent: Yuridik adabiyotlar Publ.

8. Polvonov, Sh. (2022, October). Konstitutsiyaviy boshqaruvlar: Senat boshqaruvlari kengaydi [Constitutional reforms: The powers of the Senate will be expanded]. *Adolat*. https://adolat24.uz/?p=24843

9. Safarov, D. I. (2024). Reforma verkhney palaty parlamenta Respubliki Uzbekistan v sovremennykh konstitutsionno-pravovykh usloviyakh: komparativno-pravovoy analiz osnovnykh tendentsiy [Reform of the upper house of the Parliament of the Republic of Uzbekistan in the current constitutional and legal conditions: a comparative legal analysis of the main trends]. *Gosudarstvo i pravo [State and Law]*, 6, 137–144.

10. Saidov, A. X. (2022). Yangi O'zbekiston va Konstitutsiyaviy islohotlar [New Uzbekistan and Constitutional Reforms]. *The Constitution of the Republic of Uzbekistan is the Glorification of Human Dignity, the Guarantee of Our Free and Prosperous Life: Proceedings of the Republican Scientific and Practical Conference* (p. 6). Tashkent.

11. Sarpekov, R. K., Rakhmetov, S. M., & Aspanov, A. N. (2020). *Puti sovershenstvovaniya ugolovnoy politiki Respubliki Kazakhstan [Ways to improve the criminal policy of the Republic of Kazakhstan]*. (p. 238). Almaty.

12. Safarov, D. I. (2010). *Ekologik qonunchilikni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik: muammo va mulohaza* [Criminal liability for violation of environmental legislation: problems and considerations]. (pp. 313–317). Tashkent: TSIL.

13. Safarov, D. I. (2024). Konstitutsionno-pravovye osnovy ekologicheskoy politiki Novogo Uzbekistana: sravnitel'no-pravovoy analiz [Constitutional and legal bases of environmental policy of the New Uzbekistan: comparative legal analysis]. *Journal of Foreign Legislation and Comparative Law*, 4.

14. Safarov, D. I. (2023). Zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar sharoitida parlament yuqori palatasi faoliyatini isloh etish: asosiy tendensiyalar va rivojlanish istiqbollari [Reform of the activities of the upper house of parliament in the context of modern constitutional and legal reforms: main trends and development prospects]. *Jurisprudence, 3*, Special issue, 27–37.

15. United Nations Office on Drugs and Crime (2023). Handbook on Sentencing Policies and Practices in the Criminal Justice System (New York, 2021). United States Sentencing Commission. Federal Sentencing Guidelines Manual. Washington, D.C.

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 5-SON

VOLUME 5 / ISSUE 5 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.5.